

XO‘JALIK YURITUVCHI SUBYEKTLARDA MOLIYAVIY BARQARORLIK TUSHUNCHASI.

Shodiyev Shoxrux Shokir o‘g‘li

Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti magistratura talabasi

ANNOTATSIYA

Ushbu tezisda avvalo moliyaviy barqarorlik tushunchasi atroflicha yoritilgan hamda unga ta`sir ko`rsatuvchi omillar xususida so`z borgan.

Shuningdek moliyaviy barqarorlik tushunchasi haqida xorijiy hamda milliy iqtisodchi olimlarning fikrlari keltirilgan. Moliyaviy barqarorlikni saqlab turish borasida chora-tadbirlar tahlil qilingan

KALIT SO‘ZLAR: Moliyaviy barqarorlik, korxonalar moliyaviy barqarorligi, investitsion siyosat, iqtisodiy xavfsizlik, soliq, soliq turlari, soliq hisobi.

KIRISH

Moliyaviy barqarorlik – bu moliyaviy tizimning, ya’ni moliya muassasalari, bozorlar va bozor infratuzilmalarining ehtimoliy shoklar va nomutanosibliklarga bardosh bera olishi, shu bilan birga moliyaviy vositachilik funksiyalarini bajara olmaslik ehtimolini pasaytirish qobiliyatidir. Moliyaviy barqarorlik maqsadi alohida moliya muassasasi emas, balki butun moliya tizimi barqarorligini ta’minlashdan iborat. Moliyaviy barqarorlik iqtisodiyotning barqaror rivojlanish asosi hisoblanadi.

Demak, yuqorida keltirib o‘tilgan ta’rifdan kelib chiqqan holda, Korxonalar moliyaviy barqarorligi – bu korxonaning ehtimoliy shoklar va nomutanosibliklarga bardosh bera olishi, moliyaviy vositachilik funksiyalarini bajara olmaslik ehtimolini pasaytirish qobiliyati tushuniladi.

Bugungi kunga qadar “korxonaning moliyaviy barqarorligi” tushunchasiga yakuniy ta’rifi berilgan emas. Iqtisodchilar moliyaviy barqarorlikni ifodalovchi turli ko‘rsatkichlarni ajratib ko‘rsatishadi. Korxonaning moliyaviy barqarorligiga ta’sir ko‘rsatadigan va uning moliyaviy barqarorligini belgilaydigan bir qancha ko‘rsatkichlar va ko‘rsatkichlar tizimi mavjud. K.N.Mingalievning ta’kidlashicha, "moliyaviy barqarorlik — bu tashkilotning ma’lum vaqt davomida o‘z faoliyatini

saqlab qolish, shu jumladan olingan kreditlar bo'yicha kelishuv shartlarini bajara olish hamda sifatli mahsulot ishlab chiqarishni ishlab chiqarish manbalari bilan ta'minlay olish qobiliyatidir".

Savitskaya G.V. moliyaviy barqarorlikka kengroq ta'rif bergan. Uning fikricha, "korxonaning moliyaviy barqarorligi — bu tadbirkorlik subyekting o'zgaruvchan ichki va tashqi muhitda o'z aktivlari va passivlari muvozanatini ushlab uchun xavfning maqbul darajasida doimiy to'lov qobiliyati va investitsiya jozibadorligini saqlagan holda faoliyat ko'rsatishi va rivojlanishi, uning barqarorligini kafolatlash qobiliyati", — hisoblanadi.

Ushbu ta'rifda korxonaning aktivlari va passivlari nisbati, shuningdek uning investitsion jozibadorligi kabi yangi omillar paydo bo'ladi. Mahalliy va xorijiy iqtisodchilarning tadqiqotlari tahlili shuni ko'rsatadiki, korxonaning moliyaviy barqarorligi ko'rsatkichi mohiyatini ochib berish uch asosiy yondashuv orqali amalga oshirilishi mumkin:

- korxonaning moliyaviy holatini ifodalovchi ko'rsatkichlarga asoslangan holda moliyaviy barqarorlik izohlash;
- kapital tarkibini tahlil qilish yordamida moliyaviy barqarorligini izohlash;
- korxonaning turli xatarlardan himoyalanganligiga asoslangan holda korxonaning moliyaviy barqarorligini izohlash.

Birinchi yondashuv tarafdorlari iqtisodchilar A.G. Gryaznova, E.N. Ishima G.N. Vyborova va boshqalar. Ularning fikriga ko'ra, korxonaning moliyaviy barqarorligi likvidlik, rentabellik, to'lov qobiliyati, ishbilarmonlik faolligi va

boshqalar kabi ko'rsatkichlar orqali aniqlanishi kerak. Moliyaviy barqarorlik to'lov qobiliyati tushunchasiga yaqin, ya'ni u ko'p hollarda korxonaning moliyaviy resurslarini to'plash qobiliyati sifatida qaraladi.

Ikkinchi yondashuv tarafdorlari sifatida Yu.A.Danilevskiy, V.V.Kovalyov, O.V.Nfimova. G.V.Savitskayalarni sanab o'tish mumkin. Ularning fikricha korxonaning xususiy kapitali moliyaviy barqarorlikning asosiy ustuni hisoblanadi hisoblashadi. Ushbu yondashuv asosiy manba sof aktivlar qiymati deb hisoblaydi. Asosiy muammo xususiy kapitalning umumiy miqdorini aniqlash va sof aktivlar qiymatini kerakli darajada ushlab turish uchun xususiy kapital va qarz mablag'larining maqbul muvozanatini ta'minlashdir. Sof aktivlar qanchalik ko'p bo'lsa, korxonaning moliyaviy jihatdan shuncha barqaror bo'ladi.



Bu yondashuvlar bizga korxonaning moliyaviy barqarorligi to‘g‘risida kengroq tushunchalarga ega bo‘lishimizga yordam beradi.

Endi esa, korxonalar moliyaviy barqarorligini ta‘minlash bo‘yicha investitsion siyosatning ahamiyati xususida to‘xtalamiz. Korxonalar xo‘jalik yuritish va ishlab chiqarish faoliyatining muhim jihatlaridan biri ishlab chiqarish va iqtisodiy salohiyatni rivojlantirish va saqlab qolishdir. Korxonalar bu yo‘nalishdagi siyosati investitsiya siyosati deb ataladi hamda “Investitsion faoliyat to‘g‘risida” gi qonun va boshqa huquqiy hujjatlar bilan tartibga solinadi.

Investitsiyalar – korxonalar va xalq xo‘jaligi miqyosidagi yangi ishlab chiqarish korxonalarini yaratish yoki mavjud korxonalarni zamonaviylashtirish, ilg‘or texnika va texnologiyalarni o‘zlashtirish, mahsulot ishlab chiqarish va daromad olishni ko‘paytirish maqsadida uzoq muddatli sarmoya mablag‘larini kiritishdir. Investitsiyalar ijtimoiy ishlab chiqarish tuzilmasini yaxshilash, ishlab chiqarishdagi disproporsionalliklarni bartaraf etish, moliyaviy barqarorlikka erishish va iste‘mol bozorini ta‘minlashda alohida e‘tiborga ega.

Xulosa o‘rnida ta‘kidlash joizki, mamlakat hududida joylashgan korxonalar mahalliy va xorijiy investitsiyalarni jalb qilish, ya‘ni ularni yuqori sifatli xorijiy texnika va texnologiyalar, asbob uskunalar bilan ta‘minlash orqali biz korxonalar investitsiya kiritgan hisoblanamiz. Keyinchalik oradan uzoq vaqt o‘tmay, ushbu korxonalar qo‘llaniladigan investitsion siyosat o‘z samarasini beradi.

Korxonalar va tashkilotlarning moliyaviy barqarorligi iqtisodiyotni diversifikatsiyalash hamda yashil iqtisodiyotni qurish sharoitida e‘tiborga olinishi kerak bo‘lgan asosiy ko‘rsatkichlaridan biri sanaladi. Korxonaning moliyaviy barqarorligiga ichki va tashqi omillar ta‘sir ko‘rsatadi. Bu korxonalar xususiy kapitali qiymatlarini oshishiga yoki kamayishiga sabab bo‘ladigan omillardan iboratdir. Soliq hisobi, to‘lanadigan soliq turlari hamda soliq hisoblash tizimlari aynan korxonaning moliyaviy barqarorligiga ta‘sir qiluvchi omillardan biri sanaladi.

boshqalar kabi ko‘rsatkichlar orqali aniqlanishi kerak. Moliyaviy barqarorlik to‘lov qobiliyati tushunchasiga yaqin, ya‘ni u ko‘p hollarda korxonaning moliyaviy resurslarni to‘plash qobiliyati sifatida qaraladi.

Ikkinchi yondashuv tarafdorlari sifatida Yu.A.Danilevskiy, V.V.Kovalyov, O.V.Nfimova. G.V.Savitskayalarni sanab o‘tish mumkin. Ularning fikricha korxonaning xususiy kapitali moliyaviy barqarorlikning asosiy ustuni hisoblanadi hisoblashadi. Ushbu yondashuv asosiy manba sof aktivlar qiymati deb hisoblaydi.



Asosiy muammo xususiy kapitalning umumiy miqdorini aniqlash va sof aktivlar qiymatini kerakli darajada ushlab turish uchun xususiy kapital va qarz mablag‘larining maqbul muvozanatini ta’minlashdir. Sof aktivlar qanchalik ko‘p bo‘lsa, korxonada moliyaviy jihatdan shuncha barqaror bo‘ladi.

Bu yondashuvlar bizga korxonaning moliyaviy barqarorligi to‘g‘risida kengroq tushunchalarga ega bo‘lishimizga yordam beradi.

Korxonada soliq hisobini to‘g‘ri yuritilishi korxonaga moliyaviy aktivlarning tejalishini ta’minlab beradi. Tejab qolingan soliq summalari hisobiga esa korxonaning sof aktivlar miqdori oshadi. Bu har qanday holda ham korxonaning moliyaviy barqarorligini oshiradi.

Soliq hisobining maqsadi korxonada to‘laydigan soliqlar miqdorini aniqlashdan iborat emas. Soliq hisobi korxonaning qanday soliq tizimida faoliyat olib borishini, ya’ni yagona soliqmi yoki umumiy tartibdagi soliq to‘lovchisi sifatida faoliyat yuritishi, soliq imtiyozlaridan foydalanish imkoniyatlarni oshirish, o‘z vaqtida soliq to‘lovlarini to‘lanishini nazorat qilish natijasida turli penya va jarimalar ko‘rinishidagi xarajatlarni oldini olish va boshqa bir qancha vazifalarni bajaradi.

Korxonada soliqlarning hisoblanishi va to‘lanishini tartibga solish va rivojlantirishning mavjud mexanizmlariga qaramay, iqtisodiyotini raqamlashtirish sharoitida hali ham bir qator hal yechilmagan muammolar mavjud. So‘nggi paytlarda kriptovalyuta va tokenlarni o‘z ichiga olgan raqamli moliyaviy aktivlarni yaratish, saqlash va aylanish jarayonida yuzaga keladigan munosabatlar atrofida huquqiy maydonni belgilashdagi qiyinchiliklar faol muhokama qilinmoqda. Bu mamlakatda raqamli kriptovalyutalar muomalasini tartibga soluvchi qonun me’yoriy hujjatlarni shakllantirish hamda ularni muomalaga kiritish bilan hal bo‘ladigan masalalardan biridir. Birinchi galda huquqiy nuqtayi nazaridan qonun hujjatlarida mazkur moliyaviy vositalarning ta’rifini belgilash; raqamli pul munosabatlarini huquqiy tartibga solish maqsad va tamoyillarini ishlab chiqish; ushbu turdagi moliyaviy vositalarni tartibga solishda milliy va xalqaro standartlar o‘rtasidagi optimal muvozanatni aniqlash kabi muhim masalalar hal etilishi zarur. Undan keyin esa yuridik va jismoniy shaxslarning kriptovalyutalarni qaysi yo‘nalishlarda va qanday tasarruf etishlari mumkinligi bo‘yicha zaruriy me’yorlarni ishlab chiqish kerak.



Korxonalarda soliq hisobini optimallashtirish hamda to‘lanadigan soliqlar hisobidan moliyaviy resurslarni tejalishini ta‘minlashga erishish moliyaviy barqarorlikka ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. <https://cbu.uz/uz/financial-stability/about/> “Moliyaviy barqarorlik”
2. <https://fayllar.org/byudjet-soliq-siyosati.html> “Byudjet - soliq siyosati”
3. <https://fayllar.org/mavzu-ozbekiston-respublikasida-byutjet-soliq-va-pul-kredit-s.html?page=4> “Byudjet – soliq siyosatining mohiyati va usullari”
4. <https://fayllar.org/korxonaning-investitsion-faoliyati.html> “Korxonaning investitsion faoliyati”



Research Science and Innovation House